



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVIKA INSTITUTI REKTORINING**

BUYRUG‘I

2023 yil "15" 11

654-son

Toshkent sh.

**Institutda korrupsiyaning oldini olishga,
unga qarshi kurashishga hamda uni keltirib
chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni
bartaraf qilishga doir profilaktik tadbirlar
o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining hamda korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashishga oid munosabatlarni tartibga solib turishga doir qabul qilingan boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarning talablariga muvofiq, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish hamda institut faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta‘minlash va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Barcha prorektorlar, rektor maslahatchisi, fakultetlarning dekanlari hamda kafedralarning mudirlari o‘zlarining kundalik ish faoliyatlari davomida so‘zsiz va bir xilda rioya qilishlari hamda ularning talablarini lozim darajada bajarishlari uchun O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga doir munosabatlarni tartibga solib turishga oid qabul qilingan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni o‘zlarining kundalik ish faoliyatlari davomida ularning talablariga qat‘iy to‘liq darajada rioya qilish uchun rahbarlik va ijro uchun qabul qilsin.

2. Institutning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limining boshlig‘i E.X.Sayitovga:

2.1. Institutda korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, unga qarshi kurashish, ularni keltirib chiqaruvchi, sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rishga doir masalalarni institut barcha kafedralarining professor-o‘qituvchilari va boshqa xodimlari ishtirokida aynan mazkur masalalarni muhokama qilishga bag‘ishlangan kafedralarining alohida majlislarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqish va muhokama qilish hamda ularning natijalarini bayonnoma shaklida rasmiylashtirish;

2.2. Institut kafedralarining barcha professor-o‘qituvchilaridan o‘zlarining xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora berayotgan talabaning, yoxud boshqa shaxsning manfaatini

ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olish, yoxud mulkiy manfaatdor bo'lish, ya'ni korrupsiya hamda tamagirlik bilan bog'liq bo'lgan noqonuniy, qonunga xilof va qonun bilan taqiqlangan har qanday qilmishlarni sodir qilmaslik, agarda shunday qilmishlarni sodir qilgan taqdirda esa, ularga nisbatan bunday salbiy, qonunga xilof xatti-harakatlari uchun albatta jazoning muqarrarligi tamoyiliga asosan jazolanishi to'g'risida oldindan rasmiy ravishda ogohlantirilganligi to'g'risida ulardan tegishli mazmunda kafolat xatlari olish vazifalari yuklatilsin.

3. Ushbu buyruqning 2.1-bandida qayd qilib o'tilgan vazifalarni muhokama qilish hamda bajarishga doir Institutning kafedralarida korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish hamda uni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish masalalariga doir yig'ilishlar o'tkazish jadvali 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Barcha fakultetlarning dekanlari hamda kafedralarning mudirlariga:

4.1. Mazkur buyruqning 2.1-hamda 2.2-bandlarida belgilab qo'yilgan vazifalarning o'z vaqtida, sifatli tarzda hamda talab darajasida ijrosini ta'minlash uchun institutning Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i E.X.Sayitovga bu borada tashkiliy hamda amaliy jihatdan tegishli zarur yordam ko'rsatish;

4.2. Korrupsiya hamda tamagirlik bilan bog'liq bo'lgan noqonuniy hamda qonun bilan taqiqlangan har qanday qilmishlar sodir qilingan taqdirda, shunday qilmishlarni sodir qilgan shahslarga nisbatan bunday salbiy, qonunga xilof xatti-harakatlari uchun albatta jazoning muqarrarligi tamoyiliga asosan ularning javobgarlikka tortilib, tegishli jazo choralari qo'llanilishi to'g'risida keng qamrovli tushuntirish hamda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi mutaxassisi Sh.A.Akbarovga;

5.1. Korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish va uni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilishga doir tadbirlarni o'tkazish bo'yicha taklifnomalar tayyorlash, dasturlar ishlab chiqish, videorolik va slaydlar tayyorlab borish;

5.2. Institutda o'tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlar (konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari va ochiq muloqotlar) to'g'risida oldindan institutning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlaridagi kanallari orqali oldindan e'lon berib borish;

5.3. Institutning rasmiy veb-saytida "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limidagi ma'lumotlarning muntazam ravishda yangilanib borilishini ta'minlashi;

5.4. Korrupsiyaga qarshi kurashishga hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilishga doir audio-video roliklar, foto hamda bukletlar, shuningdek o'quv-uslubiy qo'llanmalar va bryoshyura (risolalar) tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan ishlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

6. Institut matbuot kotibi S.Arslonovaga;

6.1. Ushbu yo'nalishda o'tkazilgan tadbirlarning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda institutning rasmiy telegram veb-saytiga (kanaliga) joylashtirib borsin.

7. O'qitishning texnik vositalari bo'limi boshlig'i F.E.Qarshiboyevga;

7.1. Mazkur buyruq nusxasi institut rasmiy veb-saytining normativ-huquqiy hujjatlar sahifasiga joylashtirilib borilsin.

8. Mazkur buyruq tasdiqlanib, amalda qo'llanish uchun tatbiq etilganidan so'ng institut rektorining 2022 yilning 12 may kunidagi "Institutda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish to'g'risida"gi 256-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu buyruq ijrosining ta'minlanishi ustidan nazorat qilish vazifasi institutning Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limining boshlig'i E.X.Sayitov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023 yilning 18 sentyabr kunidagi 05-23/22240-sonli ko'rsatma xati.

Rektor



K.S.Rizayev

**Toshkent Farmatsevtika instituti rektorining
2023 yilning “15” noyabrdagi 654-sonli
buyrug‘iga ilova**

**Institutning kafedralarida korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi
kurashish hamda uni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf
qilish masalalariga doir yig‘ilishlar o‘tkazish**

J A D V A L I

T/R	Kafedralarning nomi	Yig‘ilish o‘tkazish sanasi	Yig‘ilish o‘tkazish vaqti
1	2	3	4
1.	“Farmakognoziya” kafedrasida	20.11.2023 yil	11 : 00
2.	“Farmakologiya va klinik farmatsiya” kafedrasida	20.11.2023 yil	15 : 00
3.	“Farmatsevtika ishini tashkil qilish” kafedrasida	21.11.2023 yil	11 : 00
4.	“Dori turlari texnologiyasi” kafedrasida	21.11.2023 yil	15 : 00
5.	“Dori vositalari sanoat texnologiyasi” kafedrasida	22.11.2023 yil	11 : 00
6.	“Noorganik, fizik va kolloid kimyo” kafedrasida	22.11.2023 yil	15 : 00
7.	“Toksikologik kimyo” kafedrasida	23.11.2023 yil	11 : 00
8.	“Farmatsevtik kimyo” kafedrasida	23.11.2023 yil	15 : 00
9.	“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida	24.11.2023 yil	11 : 00
10.	“Biotexnologiya” kafedrasida	24.11.2023 yil	15 : 00
11.	“Analitik kimyo” kafedrasida	27.11.2023 yil	11 : 00
12.	“Farmatsevtika ishini tashkil qilish va farmatsevtik texnologiya” kafedrasida	27.11.2023 yil	15 : 00
13.	“Farmakognoziya va dori vositalarini standartlash” kafedrasida	28.11.2023 yil	11 : 00
14.	“Ijtimoiy, tabiiy va farmatsevtik fanlar” kafedrasida	28.11.2023 yil	15 : 00
15.	“Farmatsevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va sifat menejmenti” kafedrasida	29.11.2023 yil	11 : 00
16.	“Organik sintez” kafedrasida	29.11.2023 yil	15 : 00

17.	“Tibbiy va biologik fanlar” kafedrası	30.11.2023 yil	11 : 00
18.	“Fizika, matematika va axborot texnologiyalari” kafedrası	30.11.2023 yil	15 : 00
19.	“Ijtmoiy fanlar” kafedrası	1.12.2023 yil	15 : 00